



SANGZOR HAVZASI IQLIMINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

Xoldorova G.M.

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası v.b.dotsenti,g.f.f.d.,PhD
xoldorovaguli@gmail.com.*

Yusupova M.B.

Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Sangzor havzasining tabiatini o'rganish borasida bir qancha olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu vaqtga qadar Sangzor havzasi tabiati va ulardan foydalanish yo'llari bo'yicha alohida tadqiqot ishlari olib borilmagan. Maqolada havza iqlimi haqida so'z yuritiladi. Ayniqsa iqlim omillarining tabiiy geografik jarayonlarni vujudga keltirishda asosiy rol o'ynashi ta'kidlanadi.*

Tayanch iboralar: *Iqlim, tabiiy o'lkasi, tuproq, suv havzalari, o'simliklar, suv omborlar, hayvonot dunyosi, monitoring, tahlil, landshaft.*

Abstract: *Several scientists have conducted research on the nature of the Sangzor basin. Until now, no separate research has been conducted on the nature of the Sangzor basin and ways of its use. The article talks about the climate of the basin. It is emphasized that climate factors play a key role in creating natural geographical processes.*

Key words: *Climate, landscape, soil, water bodies, vegetation, reservoirs, fauna, monitoring, analysis, landscape.*

Hozirgi vaqtda suv resurslarining hosil bo'lish xususiyatlarini tabiiy geografik omillarga bog'liq holda tadqiq etish va ularni inson ehtiyojlarini qondirish maqsadida miqdoriy baholash usullarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda, past tog'lar yonbag'irlari va ularning etaklaridagi quruq o'zanlarda vaqtinchalik suv oqimining hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydigan atmosfera yog'inlarining chegara qiymatlarini aniqlash, shu tarzda iqlim sharoiti qurg'oqchil bo'lgan hududlarda hosil bo'lgan suv oqimlaridan samarali foydalanish masalalari ko'plab tadqiqotchilarni qiziqtirmoqda. Ushbu masalalarning ijobiy hal etilishi, shu jumladan, arid zonalar suv resurslaridan inson manfaatlari yo'lida oqilona foydalanish muhim hisoblanadi.

Sangzor havzasining tabiatini o'rganish borasida bir qancha olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu vaqtga qadar Sangzor havzasi tabiati va ulardan foydalanish yo'llari bo'yicha alohida tadqiqot ishlari olib borilmagan. Sangzor havzasidagi tabiatini o'rganish ko'proq tasviri xarakterga ega bo'lgan bo'lib, xalq xo'jaligini biror bir jihatlarini o'rganish jarayonida qisqacha to'xtalib o'tish bilan cheklangan. Sangzor havzasi uchburchak ko'rinishda Molguzar va Turkiston tog'lari orasida joylashgan. Uning yuqori qismi tor (2-3 km), quyi qismi esa 15-20 km, uzun va shu yo'nalishda qiyalashib boradi. U Balx qishlog'i atrofida birmuncha qiyalashib,



baland tekislik qiyofasiga ega bo'lsada, so'ngra shimolga burilib, yana torayadi va Amir Temur darvozasi deb ataluvchi tor daraga aylanadi. Keyin Jizzax vohasiga qo'shilib ketadi. Havzaning geomorfologiyasi maxsus tarzda o'rganilmagan bo'lsada, ayrim tabiiy-geografik jarayonlar olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Havzaning adirlari yuzasi vaqtincha va doimiy oqar suvlar errozion va akkumulyativ faoliyati natijasida kuchli parchalangan, jarlanish va suffoziya keng tarqalgan. Vodiydagi Molguzar tog'i 70 km masofaga cho'zilsada, uncha baland emas (2600 m), Chumqor tog'i xususan Turkiston tog'i 75 km bo'lib, uning balandliklari 2000-3500 m. Tog' yonbag'irlari qisqa, lekin chuqur eroziya chiziqlari bilan keskin parchalangan bo'lib, soylarning bosh qismlarini egallaganlar.

Sangzor havzasi iqlim xususiyatlarini bir qancha olimlar tadqiq etganlar. B.P. Alisovning ko'rsatishiga binoan Sangzor havzasi subtropik mintaqaning eng shimoliy qismlarini tashkil etadi. Shu boisdan uning asosiy iqlim ko'rsatkichlari havoning quruqligi, radiatsiya miqdorining yuqoriligi, ob-havoning mavsumiy o'zgarishi subtropik xususiyatlarga yaqindir. G'allaorol atrofida (22 iyun, ya'ni eng uzoq kun) quyosh ufqdan 74° balandda turadi. Buning natijasida quyosh yoritadigan davr ham birmuncha uzoq bo'ladi. Sangzor havzasi iqlim sharoitining shakllanishida havo omillarining harakati ham muhim rol uynaydi. Yoz fasllari hudud kuchli, tez isiydi va bu yerda mahalliy kontinental tropik havo tarkib topadi. Havoning tobora qizib borishi tufayli hududda termik depressiya vujudga keladi. Natijada, bu yerga shimoldan va g'arbdan havo massalarini o'ziga tortib oladi. Ammo, bu havo massalari Sangzor daryosi havzasi havo haroratini kuchli o'zgartira olmaydi. Chunki, kelgan havo massalari qizigan yer yuzi ta'sirida tez isiydi, nisbiy namligi kamayadi, kondensatsiya jarayonlari qiyinlashadi. Shuning uchun vodiyning etak, ya'ni tekislik qismida (G'allaorol botig'i) bulutsiz, yog'insiz ob-havo vujudga keladi. Harorat ham bir muncha pasayib, oldingiga nisbatan $3-5^{\circ}$ dan 10° gacha tushib ketadi. Bu jarayon Sangzor havzasining tog'li qismlarida birmuncha namgarchilik bilan kechishi mumkin.

Sangzor havzasining daryosi 1300 m balandlikga ega bo'lgan hududlarida (Baxmal meteoposti) da havo haroratining o'rtacha yillik ko'rsatkichi yillar aro o'zgarib tursada, ushbu ko'rsatkichlar aro farq 2° C atrofida kuzatilish mumkin. Eng sovuq oy yanvar, eng issiq oy iyul.

Havo namligi ham o'simliklar qoplaminig shakllanishida muhim iqlimiy omil hisoblanadi. Dengiz sathidan 1300 m balandliklarda havo namligining o'rtacha oylik ko'rsatkichining eng yuqorisi 810-840 mb yanvar oyi bo'yicha, eng past ko'rsatkichi 320 dan 280 mb iyul oyida kuzatilgan.

Sangzor havzasining tuproqlari haqida ma'lumotlar N.A. Butskov, T.D. Jumabaev, M.A. Pankov tomonidan o'rganilgan va "O'zbekiston tuproqlari" nomli monografiyada ham keltirilgan. Ularning fikrlariga ko'ra, havzada murakkab relyef tuzilishi, tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning turli tarzda o'zgarib turishi, iqlim xususiyatlarining bir xil emasligi, o'simliklar qoplaminig turli darajada uchrashi va nihoyat antropogen ta'sir tufayli tuproq hosil bo'lish jarayoni bir xil kechmaydi. Sangzor daryosining havzasining



iqlimining tashkil topishida, butun O'rta Osiyodagi kabi mo'tadil kenglik havо massasining hukmron bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Yilning salqin vaqtida (noyabr-mart) u bilan intensiv siklonik harakatlar, havoning barqaror emasligi, yog'in sochin tushishi va haroratning tushishi bog'liq. Yilning issiq vaqtida mo'tadil kenglik havо massasi kuchli transformatsiya qilinadi, bu bilan esa issiq, quruq va barqaror ob-havo sharoiti belgilanadi. Bundan tashqari Sangzor havzasining atrofdan farq qilib o'ziga xos bo'lgan iqlim xususiyatlari ham bor. Iqlimning bu xususiyatlarining shakllanishida ororafik tuzilishi muhim rol o'ynaydi.

Sangzor daryosi havzasining iqlim sharoitiga muhim ta'sir ko'rsatadigan omillar bular insonning ishlab chiqarish faoliyati va u bilan bog'liq bo'lgan sug'orish, lalmikor yer maydonlarining vujudga kelishi, o'simlik qoplaminig, ayniqsa tog' yonbag'irlaridagi o'rmonlarning kesib yuborilishi va boshqalar kiradi.

Shamol rejimi. Sangzor-G'allaorol relyefining mahalliy sharoitiga bog'liq holda shamollarning o'ziga xos yo'nalishi harakterlidir. Sangzor stansiyasida vodiynig shu jumladan atrofdagi tog' tizmalarining hududiy yo'nalishiga bog'liq holda yil bo'yi sharqiy shamollar, G'allaorolda esa shimoliy va shimoli-sharqiy hukmronlik qiladi. Milyutin stansiyasida yillik takrorlanadigan shamollarning 57 % shimoli-sharqiy shamollarga to'g'ri keladi.

Shahrison dovonida (3143 m) tog'ning orografik sharoitini ta'siriva ochiq atmosferadagi havо oqimlarining ta'siri natijasida yil bo'yi o'rtacha tezligi 6,5 m/sek bo'lgan janubiy va janubi-g'arbiy shamollar esib turadi.

Harorat rejimi. Sangzor havzasi, shu jumladan butun O'rta Osiyo tabiiy o'lkasi uchun umumiy bo'lgan mavsumiy va yillik o'zgarishning tebranishi kattaligi bilan harakterlanadigan kontinental harorat rejimi xosdir. Farq qiladigan xususiyati xudud bo'yicha yillik havо haroratining bir xil emasligidadir.

Sangzor daryosi havzasining o'rtacha yillik haroratining hudud bo'yicha tarqalishi tahlil qilib ko'ramiz (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Har xil mutloq balandliklarda havoning oylik o'rtacha harorati

Meteo- siya nomi	Dengiz dan ndligi	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	Yillik
Milyutin	58	-	-	5,	1	18,	23,	2	24	18,	1	3	-	11
Jizzax oni	73	-	0,	5,	1	19,	25,	2	26	20,	1	5	0,	13
G'allaor	73	-	0,	6,	1	19,	24,	2	25	20,	1	5	1,	12
Sangzor	13	-	-	4,	1	15,	19,	2	22	17	1	4	0,	10
Ko'lsoy	21	-	-	-	4,	10,	13,	1	14	10,	4,	-	-	4,



Shahrist dovoni	31	-	-	-	-	4,1	7,7	1	10	6,9	1,	-	-	0,
--------------------	----	---	---	---	---	-----	-----	---	----	-----	----	---	---	----

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, havo haroratining turli xilligi bilan belgilanadi. Havo haroratining o'zgarishi sharqdan g'arbga qarab va mutloq balandlikning o'zgarishiga qarab o'zgarib boradi. G'arbdan sharqqa qarab balandlikning o'zgarishi bilan (736 m dan 3143 m) haroratning yillik vertikal gradiyenti $0,50^{\circ}$, o'rtacha iyul $0,52$, o'rtacha yanvarniki $0,37^{\circ}$ tengdir.

Milyutin stansiyasida sovuq havoning uzoq turib qolishi natijasida, minimal havo harorati -40°C gacha (1984) tushib ketishi mumkin. Shahriston dovonida havo ochiq almashinib turish sharoitida harorat -35°C gacha tushadi. Milyutin stansiyasi rayonida salbiy minimum hatto iyun oyida ham kuzatilishi mumkin. Turkiston tizmasining suvayirg'ich qismida yil bo'yi absolyut minimum kuzatilishi mumkin. Shahriston dovonida hatto iyul oyida ham -2°C sovuqlar bo'ladi Hududning tog'li qismida joy absolyut balandligining ortib borishi bilan qor qoplaminin qalinligi oshib boradi. Y.N.Balashova va boshqalar ma'lumotiga ko'ra Shahriston dovonida qor qoplaminin qalinligi 1 m ni tashkil etadi. Qor qoplaminin qalinligiga joyning relyef shakllari, yonbag'irlarning tikligi va qaysi tomonga qaraganligi hamda o'simlik qoplami katta ta'sir ko'rsatadi. 1000 m balandlikdan boshlab noyabr oyining oxiri dekabr oyining boshlarida har yili qor qoplami hosil bo'ladi.

Shunday qilib, tadqiq etiladigan hududda qish faslida Arktika havo massalari bemalol kirib keladi va joyning orografik xususiyati esa uning uzoq turib qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun eng minimal haroratlar dekabr-yanvarida kuzatiladi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Л.Алибеков, Инсон ва табиат. "Фан ва технология" Тошкент. 2016
2. Gapparov, A., & Kholdorova, G.(2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. Abdunazarov, U., & Sabitova, N., Kholdorova, G . Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Холдорова, Г. М. (2021). Роль картографических методов в классификации орошаемых геосистем мирзачуля. Экономика и социум, (1-2), 640-647.
5. Kholdorova, G. M. (2020). Changes In Natural Geographical Processes In The Mirzachul Region Under The Influence of The Sardoba Reservoir. European Journal o f Molecular & Clinical Medicine, 7(3), 3136-3147
6. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. Проблемы современной науки и образования, (4 (86)).



7. Холдорова Г. Мирзачўл табиий ўлкаси ландшафтларининг ўзгаришида шамолнинг аҳамияти, Экология хабарномаси 2021 №2(233)
8. Холдорова, G. (2021). ПРОБЛЕМЫ МОНИТОРИНГА ОКРИЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ МИРЗАЧУЛЯ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1455>
9. Холдорова Г., Эсонов С.Э. М Сангзор хавзаси геосистемаларида тупрокларининг мелиоратив холатини картага туширишда тизимли тахлилдан фойдаланиш "Journal of Natural Sciences" №2 2021 у. <http://natscience.jspi.uz>
10. O.Ruzikulova, N. Sabitova G. Kholdorova **The role of GIS texnology in determining irrigateci geosistems** E3S Web of Conferences 227,03004(2021) GI 2021 <https://do.org/10.1051/e3sconf/202122703004>. 257 б
11. Холдорова Г Мирзачўл табиий шароитининг шаклланишида ер усти ва ер ости сувларининг ўрни. Science and education in the modern world: challenges of the xxi century" *Nur-sultan, Kazakhstan, october 2020*